



ISTE ‘MOL DOIRASI CHEGARALANGAN LEKSIKA ORQALI SIMPATIYA VA EMPATIYANI NUTQDA IFODALASH

*Mavlanova Oybarchin Sheraliyevna,
O‘zbekiston Milliy universiteti 3-kurs tayanch doktoranti
e-mail: barchin95.komilova@gamil.com*

Annotatsiya Ushbu maqolada simpatiya va empatiya hodisalari hamda ularni nutqda iste ‘mol doirasi chegaralangan leksika orqali ifodalash haqida ma ‘lumot berilgan. Maqola izlanuvchining tadqiqot ishiga asoslanib yozilgan hamda tadqiqot adabiyotlar tahlili metodologiyasi asosida olib borilgan bo ‘lib, ilgari chop etilgan badiiy asarlardan olingan misollar tahlil qilinib, iste ‘mol doirasi chegaralangan leksika orqali simpatiya va empatiya hodisalarini nutqda ifoda etadigan argo, jargon, cant va vulgar so‘zlar aniqlangan.

Kalit so‘zlar: simpatiya, empatiya, argo, jargo, cant

РЕЧЕВОЕ ВЫРАЖЕНИЕ СИМПАТИИ И СОПЕРАТИВНОСТИ ЧЕРЕЗ ЛЕКСИКОН С ОГРАНИЧЕННОЙ СФЕРОЙ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ

В данной статье представлена информация о явлениях симпатии и сопереживания и их выражении в речи посредством ограниченной лексики. Статья написана на основе исследовательской работы исследователя и исследование проведено на основе методики анализа литературы. Были проанализированы примеры из ранее опубликованных произведений искусства, выявлены аргы, сленговые, жаргонные и вульгарные слова, выражающие явления симпатии и сопереживания в речи посредством лексики с ограниченной сферой употребления.

Ключевые слова: симпатия, сопереживание, сленг, сленг, кант.

EXPRESSING SYMPATHY AND EMPATHY IN SPEECH THROUGH A LEXICAN WITH A LIMITED SCOPE OF USE

This article provides information about the phenomena of sympathy and empathy and their expression in speech through a limited vocabulary. The article is based on the researcher’s research work and the research was conducted using the methodology of literature analysis. Examples from previously published works of art were analyzed and argot, jargon, cant, and vulgar words were identified that express the phenomena of sympathy and empathy in speech through a limited vocabulary.

Key words: sympathy, empathy, slang, slang, cant

Kirish. Tildagi so‘zlar iste‘mol doirasi, qo‘llanilishiga ko‘ra xilma-xil bo‘ladi. O‘zbek tili leksikasi iste‘mol doirasiga ko‘ra asosan ikki qatlamga ajratish mumkin.

1. Qo‘llanish doirasi chegaralanmagan, umumiste‘moldagi leksika
2. Ma‘lum doiradagina qo‘llaniladigan, iste‘mol doirasi chegaralangan leksika.

Qo‘llanish doirasi chegaralanmagan leksikaga kundalik hayotda qo‘llaniladigan narsa-hodisa, voqea-jarayonlarni anglatadigan so‘zlar deyiladi. Tildagi so‘zlarning umumxalq tomonidan ishlatilmaydigan qismi ishlatilish doirasi chegaralangan leksika deyiladi. Bunday so‘zlarning ishlatilishi ma‘lum sabablarga ko‘ra chegaralangan bo‘ladi. Iste‘mol doirasi chegaralangan leksika dialektal leksika, maxsus leksika (kasbiy terminlar), jargonlarni o‘z ichiga oladi. Ingliz leksikologiyasida ham bu kabi leksik birliklar mavjud. Bular ingliz tilida og‘zaki nutq so‘zlari (colloquial words) deb atalib, ular ham o‘z o‘rnida quyidagi turlarga bo‘linadi:

1) umumiy so‘zlashuv so‘zlari.

2) Sleng – Standard ingliz tili qoidalarini normalarini buzish natijasida kelib chiqqan so‘zlar: *governor* “father” so‘zi uchun, *missus* “wife” so‘zi uchun, *gag* “joke” so‘zi uchun, *dotty* “insane” so‘zi uchun qo‘llanilgan.

3) kasbga oid so‘zlar – tor guruhlarda qo‘llaniladigan kasbga oid so‘zlar bu toifaga kiradi. Ya‘ni *lab* so‘zi “laboratory” so‘zining qisqartmasi va shu ma‘noni anglatish uchun qo‘llanilgan.

4) Jargonlar – ma‘lum bir ijtimoiy doirada qo‘llanilishi bilan belgilanadigan so‘zlar va bu so‘zlar o‘sha guruh vakillari uchun sirli xarakterga ega. Masalan *a sucker* so‘zi ingliz tilida “oson aldanadigan inson” ma‘nosida ishlatiladi.

5) Vulgarizmlar - jamoat joylarida odatda ishlatilmaydigan qo‘pol so‘zlar. Masalan: *bloody*, *hell*, *damn*, *shut up* kabilar.

6) sheva so‘zlar – ma‘lum bir hudud yashovchilari uchun tushunarli bo‘lgan so‘z va iboralar.

7) kolloquil koyinaj (bo‘lmagan so‘zlar) desak ham bo‘ladi. Bularga *newspaperdom*, *allrightnik* kabi so‘zlar kiradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Tadqiqot ishimizni leksik xususiyatlarini ochib berishda, biz e‘tiborimizni matnda emotsional-ekspressivlikni leksik jihatdan ta‘minlashga hizmat qiladigan chegaralangan leksika (argotizmlar, jargonizmlar, vulgarizmlar) va ma‘nodosh, shakldosh so‘zlarga qaratishni lozim deb topdik.

Jargon- Biror guruh vakillarining, o‘z nutqi bilan ko‘pchilikdan ajralib turish maqsadida, o‘zicha mazmun berib ishlatadigan so‘z va iboralari. Umuman olganda jargon va argolar ayrim guruh, to‘dalarga xos so‘zlar hisoblanib, ushbu so‘zlar o‘sha guruh va to‘dalarning ichki zaruriyat va ehtiyojlaridan kelib chiqib yaratilgan, faqat shu kollektiv uchun tushunarli bo‘lgan chegaralangan leksika hisoblanadi. Shuningdek, bu chegaralangan leksika vaqtinchalik bo‘lishi yoki umuman oddiy so‘zlashuv nutqiga o‘tib, undan adabiy tilga, umum qo‘llanilishga ham ko‘chishi mumkin. Misol uchun, *quyon bo‘lish*- qochib ketish. Argotizm.

(fran. *argotisme* < *argot* - jargon). Yasama til. Biror ijtimoiy guruh, toifaning o‘ziga xos, boshqalar tushunmaydigan lug‘aviy birliklardan iborat yasama tili. Mas., *loy (pul)*, *cherdak (ko‘krak chontagi)*, *shar (ko‘z)*, *zag‘cha (soat)* kabi. Shu o‘rinda argo bilan jargonning farqi jargon terminining mazmun jihatida “*yasama til*” ma‘nosi bilan birga *peyorativ sema* (kamsituvchi konnotatsiya) ham bor (*harbiy jargon*, *o‘g‘rilar jargoni* kabi), argo termini ma‘nosida esa *peyorativ sema* yoq. Jargonizm va argotizmlar adabiy tilda ishlatilmaydi. Ulardan jonli so‘zlashuv nutqida yoki badiiy asar tilida uslubiy maqsadlardagina foydalanish mumkin. Rahimova Z.Sh. “O‘zbek tilida jargon va unga yondosh hodisalar” nomli maqolasida agroning jargondan quyidagi farqini ta‘kidlab o‘tadi “Argolar jargonga nisbatan o‘zining yashirinlik xususiyati bilan ajralib turadi. Shuning uchun ular ko‘proq jamiyatning yashirin tabaqalari hisoblangan josuslar, jinoyatchilar, o‘grilar, giyohvandlar va boshqa yopiq ijtimoiy guruhlar nutqida uchraydi.” Bu ikki leksik birlik ham kichik ijtimoiy yopiq guruh tili hisoblanadi va bu guruhlar o‘zlarining maqsadlarini boshqalardan yashirish, oshkora etmaslik uchun kodlashtirilgan til birliklaridan foydalanishadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ingliz tilida topilgan misollarda simpatiyaning argo, jargon, cant, vulgarizm va sinonimlar bilan nutqa ifodalanib kelishi aniqlandi. Tadqiqot ishimizda simpatiyani ingliz tilida ushbu leksik birliklar orqali ifodalanganiga guvoh bo‘ldik va quyida ularni jadval asosida tasvirladik.

Argo	Have a drink
Jargon	Take a sun care (50), Have light exercise (50), Encysted (50) (medical), the silver medal of valor (49) (military jargon), How is the mess? (41), Valorous conduct (39), First line (39), Coup de main (39) (military), A hitter (144) (Sport jargon), A fine boy (106 kitob bet), Plates (106 bet kitob),
Cant	Empty sympathy (134), Poor Miss Taylor(136), grievous business (136), Poor Isabella(130), It is a pity (125), Poor creature (132)
Synonym	Congratulate (126), Compassion (134), Ah!, Oh!, Sadly (130), Sorry (130), Dreadful loss (136), Grieve (136), Sad (136), Melancholy (136), patted my shoulder very delicately (2ta) (49) (106 bet kitob), You are a noble young man (50), Worry (141), Look healthy as a goat (106 bet kitob), All my felicitations (49), Pity (145), Well, Awfully sorry (20), Charming (131), very beautiful (19), Pretty little creature (121), Valuable woman (121), Desparately in love (122), Very much pleased with (123), Happy(126), So prettily (129), Amiable (135), Delicate (135), over-careful (135), Tenderly attached (135), Dreadful loss (136), Grieve (136), kissed me very delicately (50), Awful nice (51), Absolutely (18)
Vulgar	What rotten luck (34), Rotten thing (106 KITOB), Bloody war (106 Kitob),

Jadvalda ko‘rinib turganidek, simpatiyani leksik birliklar orqali ifoda etishda sinonimik qator eng ko‘p so‘zlarni tashkil etgan.

Simpatiya sog‘liqni saqlash sohasida ham juda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, bemor va shifokor o‘rtasidagi munosabatlarda buni kuzatishimiz mumkin. Simpatik so‘zlarni bemor tuzalishi uchun bir motivatsiya undash kabi qabul qilishimiz mumkin. Simpatik munosabatni bemor sog‘ligi uchun ahamiyati haqida ham jahon olimlari ko‘plab izlanishlar olib borgan. Amir Husayn Goudarzin simpatiyaga quyidagicha ta‘rif beradi: “sympathy is a feeling or emotional response characterized by compassion, understanding, and concern for the suffering or hardship experienced by another person. It involves the ability to share in the feelings of others and to genuinely care about their well-being”. Ya‘ni simpatiya - bu rahmshafqat, tushunish va boshqa odam boshdan kechirgan azob-uqubatlar yoki qiyinchiliklarga g‘amxo‘rlik qilish bilan tavsiflangan hissiyot yoki hissiy reaksiya. Bu boshqalarning his-tuyg‘ularini baham ko‘rish va ularning farovonligi haqida chin dildan g‘amxo‘rlik qilish qobiliyatini o‘z ichiga oladi (dissertant tarjimasini). Mariam Arman esa, “sympathy, on the other hand, implies a desire to help the other person in his suffering” deya simpatiyaga ta‘rif beradi. Ya‘ni simpatiya o‘z navbatida, boshqa odamning azob-uqubatlari yordam berish istagini anglatadi (dissertant tarjimasini).

Tahlil va natijalar. Quyida keltirilgan misolda simpatiya frazeologik birlik orqali ifodalangan va fe‘l so‘z turkumi bo‘lib kelgan.

“You would not be in bed. You would first take a sun cure. Then you could have light exercise. Then when it was encysted we would operate.”

“But I can’t wait six months.”

Yuqorida keltirilgan jumlada “take a sun cure” frazeologik birlik hisoblanadi va jumlada tibbiy jargon sifatida ishlatilgan. Ushbu ibora to‘g‘ridan-to‘g‘ri doktorning bemorga nisbatan simpatiyasini ifodalamas ham, implitsit tarzda doktorning bemorga ijobiy munosabatini, maslahat berish orqali ifoda etilganini yuzaga keltirgan. Bundan tashqari, doctor faqatgina so‘zlari bilan emas balki jismoniy harakatlari bilan ham bemorni tinchlantirib, ruhiyatini ko‘tarishga harakat qilganligini yuqoridagi jumlaning davomidan ham anglasa bo‘ladi.

The doctor spread his delicate fingers on the cap he held and smiled. “You are in such a hurry to get back to the front?”

“Why not?”

“It is very beautiful,” he said. “You are a noble young man.” He stooped over and kissed me very delicately on the forehead. “I will send for Valentini. Do not worry and excite yourself. Be a good boy.”

Demak, ushbu gapda qo‘llanilgan “smile” (tabassum qilish), “noble”, “kiss”, “beautiful”, “delicately”, “not worry”, “good” “boy” kabi leksik birliklar jumlada emotsionallikni ta‘minlab bergan.

Simpatiya tushunchasi qadim zamonlardan beri insonlar ongida, nutqida turlicha ko‘rinishda mavjud bo‘lib kelgan. Simpatianing yuzaga kelish tarixiga nazar tashlasak, bu tushuncha avvalo falsafa va keyinchalik psixologiya kabi sohalarda paydo bo‘lganligiga

guvoh bo‘lamiz. Karyagina T.D. “Empatiya tushunchasining psixologiyada rivojlanishi” nomli dissertatsiya avtoreferatida empatiya va uning yuzaga kelishida simpatiyaning roli haqida so‘z yuritib, avvalo simpatiyaning psixologiyada ahamiyati va uning psixologik tadqiqotlarda motivatsiya, altruizm, axloqiy rivojlanishda muhim ekanligini ta’kidlab o‘tgan. Shuningdek, simpatiyaning asosida boshqa insonning holatiga hissiy reaksiya qaytarish, uni qo‘llab-quvvatlash, ruhlantirish borligini talqin qilgan.

“But you will have a better time. Even with remorse you will have a better time.”

“I don ‘t think so.”

“Oh, yes. That is true. Already I am only happy when I am working.” He looked at the floor again.

“You ‘ll get over that.”

Ushbu misolda qo‘llanilgan “get over” iborasi “to recover from something soon” ma’nosida kelgan va “nimanidur yengib o‘tmoq” deb tarjima qilinadi. Yuqorida keltirilgan jumlada suhbatdoshining gaplariga ruhlantirish ma’nosida psixologik simpatiyani yuzaga keltirgan. Bu yerda zamonning ahamiyati katta chunki gapda “will” kelasi zamon yordamchi fe‘li ishlatilgan. “will” kelasi zamon aniqlikni va maqsadni anglatadi va so‘zlovchi suhbatdoshining bu vaziyatni ham yengib o‘tishiga ishonchini ifodalagan.

O‘zbek tilidagi misolda ham simpatiyaning ingliz tilidagi misol kabi ibora bilan ifodalanganini quyida keltiramiz.

Orzixon aya atlasni yoriqqa solib tovlanishini ko‘rdi, negadir chet tarafini kaftlari orasiga olib uqaladi.

– *Yaxshi atlas. Kudungi ham joyida. Yaxshi kunlaringga buyursin.*

Jumlada qo‘llanilgan “yaxshi kunlarga buyurmoq” so‘zi yaxshi niyat qo‘llab-quvvatlashni ifodalab kelgan va “nasib bo‘lmoq, nasib qilmoq” ma’nosini anglatadi. “Buyur” va – “sin” buyruq-istak mayl hosil qiluvchi qo‘shimchasi II shaxs birlik aniq nisbatda kelgan.

Psixologik simpatiya ingliz tilida jargon bilan ham ifodalangan va ushbu holatda sodir bo‘lgan voqea-hodisadan xursand bo‘lish, quvonish va bunga ijobiy munosabatini bildirishni anglatib kelgan.

“Did they cross the river all right?”

“Enormously. They take nearly a thousand prisoners. It’s in the bulletin. Didn ‘t you see it?”

“No.”

“I ‘ll bring it to you. It is a successful coup de main.”

Ushbu jumlada qo‘llanilgan “bulletin” va “coup de main” so‘zlari simpatiyani ifodalab kelgan va harbiy sohada qo‘llaniladigan jargon hisoblanadi. Demak, “bulletin” so‘zi italyan tilidan kelib chiqqan va ot so‘z turkumi sifatida kelgan. Ushbu gapning simpatik jihati: byulletenni eslatib o‘tish va uni olib ketishni taklif qilish orqali muhim va ijobiy ma’lumot

almashish istagini bildiradi. Bundan tashqari, keltirilgan misolda “coup de main” (blow with the hand) – “to ‘ntarish” ma ‘nosida ot so‘z birikmasi bo ‘lib kelgan va jumlada *successful-muvaffaqiyatli* so‘zi bilan birgalikda kelib, “*successful coup de main*”- “muvaffaqiyatli to‘ntarish” deb tarjima qilinadi. ya ‘ni minglab mahbuslarning qo ‘lga olinishi “katta muvaffaqiyat” ekanligi ta ‘kidlangan. Harbiylar tilida bu so‘z “*successful coup de main*” birikmasi o‘sha guruhning maxsus jargoni bo‘lib kelgan va so‘zlovchi bu jargon orqali bo‘lgan voqea omadli kechgani haqida xursandchiligini ifodalagan.

Thesaurus.comda simpatiya terminiga quyidagi sinonimlar eng mos tushadigan ekanligi ko‘rsatilgan: *affinity, understanding, unity*. Ushbu so‘zlarni esa juda mos tushadigan terminlar ro‘yhatiga kiritadi: [attraction](#), [commiseration](#), [concord](#), [congeniality](#), [connection](#), [correspondence](#), [harmony](#), [rapport](#), [union](#). Tadqiqotimizda simpatiyaaning leksik xususiyatlarini yuzaga chiqarishda, simpatiyaaning sinonimlari ikki tilda ham eng ko‘p ekanligi aniqlandi va simpatiyaaning quyidagi sinonimik qatori ishlab chiqildi.

Sympathy		
Affinity	Empathy	Benevolence
Attraction	Compassion	To do good
Liking	Understanding	Helping
Harmony	Commiseration	Altruism
Love	Pity	Courtesy
Rapport	Worry	
Unity	Reassurance	
	Motivation	
	Inspiration	
	To make a wish	
	Congratulate	

Ma‘lumki, simpatiya faqatgina kishi boshiga tashvish tushganda unga achinish, yupatish, hamdard bo‘lishdan tashqari, kishilar hayotida xursandchilik, baxt bo‘lganda yaxshi niyat, tilak bildirish, maqtov orqali ularni qo‘llab quvvatlashni ruhlantirishni ham anglatadi. Demak, yuqorida keltirilgan holatlar inson ruhiyatiga ta ‘siri bilan chambarchas bog ‘liq. Simpatiya termini izohli lug‘atlarda keltirilgan ta‘riflarini tadqiq qilganimizda, jahon va o‘zbek leksikografiyasida ushbu tushunchaga, *yoqtirish, xayrixohlik qilish, kim uchundir qayg‘urish va hamdard bo‘la olish* kabi tasniflari aniqlandi. Shunga ko ‘ra, yig‘ilgan misollarda simpatiyaaning quyidagi leksik xususiyatlari topildi. Emotsiyalar kuchlilik darajasini va ifodalilikni oshirish uchun sifat va ravishlardan foydalanish. Masalan:

- 1) You ‘re awfully damned nice.
- 2) He ‘s really very generous.
- 3) I ‘m awfully sorry.

Ushbu misollarda keltirilgan “*awfully damned nice*”, “*very generous*”, “*awfully sorry*” birikmalari ma‘noni kuchaytirish va emotsiyaning intensivlik darajasini ko‘rsatish uchun qo‘llanilgan. *Awfully* (adverb) yomon ham+*damned* (adjective) jin urgir bilan birga birikib nice (yaxshi) so‘zining ma‘nosini “*haddan tashqari yaxshi*” ekanligini ifodalagan.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, simpatiya va empatiya hodisalarini iste‘mol darajasi chegaralangan leksika orqali ifodalash, nutqda birmuncha chegaralangan. Ya‘ni simpatiya va empatiyani ifoda etuvchi birliklar kamchilikni tashkil etganligi sababli, tadqiqot qamrovini biroz cheklab qo‘yadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. O‘zbek tili kelsikologiyasi. Tohkent, O‘zbekiston SSR “Fan” nashriyoti. 1981. – b. 11
2. Sobirov M.S. O‘zbek tili leksikasining ishlatilishi. 2023. – b 151
3. Г. З. Гинзбург, С.С. Хидекель, Г. Ю. Князева и А. А. Санкин. Лексикология английского языка: Учебник. для ин-тов и фак. иностр. яз. 2-е изд., испр. и доп. — М.: Высш. школа, 1979. — 22 с.
4. Yo‘ldoshev M. Badiiy matnning lisoniy tahlili. T: - 2007. – B. 120
- Mahkamov N., Ermatov I. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. Toshkent, 2013. – B. 17
5. Hozirgi o‘zbek tili. Toshkent, 2016. – B 59
6. Rahimova Z.Sh. O‘zbek tilida jargon va unga yondosh hodisalar. Journal of universal science research, 2021.– B. 429
7. Goudarzian A.H. Consequences of Sympathy and Sense of Pity of People Towards Cancer Patients: An Opinion. Basic and Clinical Cancer Research, January 2024. –p. 2. DOI:[10.18502/bccr.v14i4.14673](https://doi.org/10.18502/bccr.v14i4.14673)
8. Arman M. Empathy, sympathy, and altruism-An evident triad based on compassion. A theoretical model for caring. 2023. – p. 864. DOI: [10.1111/scs.13163](https://doi.org/10.1111/scs.13163)
9. Карягина Татьяна Дмитриевна. Эволюция понятия эмпатия в психологии. Дисс.автореф. Москва, 2013. – сс. 35